

BAYRAMINGIZ MUBORAK, AZIZ AYOLLAR!



Ayollarni, qizlarni bahorga qiyoslashadi, bahorni esa ularga. Go'zallik, nafosat, yangilanish, hayot davomiyligi bahor va ayol tushunchalarida uyg'unlashib ketadi. 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar bayrami go'zal va betakror yurtimizga bahor nafasi kirib kelganidan darak beradi. Ayol azaldan mehr-shafqat timsoli bo'lib kelgan. Ayol deganda, ko'z o'ngimizda avvalo, ulug' va tabarruk ona siymosi gavdalanadi. Inson zoti borki, olamdagi barcha yaxshilik va ezguliklarni, hayot sir-u asrorlari va saboqlarini onaning mehru-sahovati tufayli o'rganadi. Ayol borki, olam munavvar, ayol borki hayot go'zal va maftunkor. Inson, ayol tushunchalarini bir-biridan ajralgan holda, tasavvur etib bo'lmaydi.



Oilani ham, jamiyatimizni ham birlashtirib, unga fayzu barokat kiritadigan xonadonlarimizni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan zotlar ham aslida, mo'tabar onalarimiz, munis opa-singillarimizdir. Shu sababli ham 8-martni aynan Ayollarimiz kuni ya'ni, xalqaro xotin-qizlar kuni deb, keng nishonlaymiz. Ushbu bayram bugun nafaqat yurtimizda, balki dunyoning barcha burchaklarida juda keng nishonlanmoqda. "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti talaba-qizlarga ham bayram munosabati bilan unversitetimiz rektori t.f.d.professor, B.Mirzaev tomonidan yo'llangan bayram tabrigi o'z egalariga topshirildi.

